This methodological guide explains the structure and possibilities of a new type of author Alisher Navoi's corpus. the Alisher Navoi Author's Corpus created as a result of the practical project “Creation of Alisher Navoi Author's Corpus” under the number AL-662205561 has such important aspects as educational, linguistic, historical, spiritual, and is currently in working condition. This methodical guide has provided basic information about the corpus and instructions on how to use the corpus.



Manzura Abjalova – Associate Professor of the Department of Theoretical and Applied Linguistics of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Doctor of Philology (DSc)

Research works (dissertations):

(PhD): "Linguistic modules of the program for editing and analyzing texts in the Uzbek language (2019).
(DSc): "Principles of creating an ontology of the Uzbek language" (2022).

Popular scientific publications:

“Esperanto tilini bilasizmi?” (2010)
“Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari” (Monografiya. 2020)
“O‘zbek tili o‘zlashmalarining urg‘uli lug‘ati” (Jamoaviy lug‘at. 2021)
“O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi” (Monografiya. 2022)
“Korpus lingvistikasi” (2022)
“O‘zbek tilidagi paronim so‘zlar lug‘ati” (2022)
“O‘zbek tili sinonimlarining o‘quv lug‘ati” (Jamoaviy lug‘at. 2023)

Achievements:

- 1st place winner of the Republican competition "The best specialist of the information-library institution – 2018"
- Winner of the III Republican competition "100 best innovative projects of women of Uzbekistan" in the category "Best program and database for DT" (2020)
- Winner of the competition of scientific and creative works "The best method of teaching the Uzbek language". (2020)
- Holder of the "Leader of Innovative Ideas" badge (2020)

manzura_ok@mail.ru
abjalova.manzura@gmail.com

BOOKMANY PRINT publishing company

ISBN 978-9910-06-252-0
9 789910 062520

Manzura Abjalova

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI: IMKONIYATLARI VA FOYDALANISH YO‘RIQNOMASI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Abjalova Manzura Abdurashetovna

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI: IMKONIYATLARI VA FOYDALANISH YO‘RIQNOMASI

Uslubiy qo‘llanma

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024

UO‘K: 811.93(072)
KBK: 81.32O‘z
A 12

Abjalova, Manzura.
Alisher Navoiy mualliflik korpusi: strukturasi va tarkibi [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 164 b.

O‘z. Mazkur qo‘llanmada yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusining strukturasi va tuzilishi tushuntirildi. Dunyo miqyosida insonning intellektual rivojlanish va mental olamini kengaytirishga urinishlarning davri kechayotgan ayni damda ma’naviyati kuchli, mantiqiy ilmi chuqur, tasavvuri keng insonlar namunasini ularning ijodiy ishlaridan olib ko‘rsatish kutilgan natijalarni beradi. Ana shunday ulug‘vor insonlardan Alisher Navoiy asarlarini o‘qish va o‘rganish, tahlil qilish, muhimi tushunish o‘quvchi tafakkuri qamrovi, vizualizatsiya imkoniyatlarini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, AL-662205561 raqamli “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” nomli amaliy loyiha natijasida yaratilgan Alisher Navoiy mualliflik korpusi ta’limiy, lingvistik, tarixiy, ma’naviy kabi ahamiyatli jihatlarga ega bo‘lib, hozirgi kunda ish faoliyatida. Ushbu qo‘llanmada korpusga oid asosiy ma’lumotlar va undan foydalanish yo‘riqnomasi berildi.

Qo‘llanmadan “Korpus lingvistikasi”, “Kompyuter lingvistikasi”, “Amaliy tilshunoslik” kabi fanlarning ma’ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlarida, o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid darslarda, til korpuslari, jumladan, mualliflik korpuslari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davomida foydalanish mumkin.

Mas’ul muharrir:
Sirojiddinov Sh. – Filologiya fanlari doktori, akademik

Taqrizchilar:
Eshref Adali – Texnika fanlari doktori, professor
Muhamedova S.X. – Filologiya fanlari doktori, professor

Uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 25-sentabrdagi 2-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

© Abjalova M.A., 2024.
ISBN 978-9910-06-252-0 **© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.**

UDC: 811.93(072)
LBC: 81.32O‘z
A 12

Abjalova, Manzura.
Alisher Navoi authorship corpus: structure and content [Text]: methodical guide / M. Abjalova. – Tashkent: Bookmany print, 2024. – 164 p.

Abstract. This methodological guide explains the structure and possibilities of a new type of author Alisher Navoi's corpus. At this time, when all over the world there is a period of intellectual development and attempts to expand the mental world of human, showing the example of people with strong spirituality, deep logical science, wide imagination gives the expected results. Reading and studying Alisher Navoi's works from such remarkable people, analysis, understanding of important expands the possibilities of reading thinking, visualization. In this regard, the Alisher Navoi Author's Corpus created as a result of the practical project “Creation of Alisher Navoi Author's Corpus” under the number AL-662205561 has such important aspects as educational, linguistic, historical, spiritual, and is currently in working condition. This methodical guide has provided basic information about the corpus and instructions on how to use the corpus. The handbook can be used in lecture, practical and seminar classes on such disciplines as “corpus linguistics”, “computer linguistics”, “applied linguistics”, in lessons devoted to the life and work of Alisher Navoi in secondary, specialized secondary and higher educational institutions, in the course of scientific research on language corpora, including author's corpora.

Responsible editor:
Shukhrat Sirojiddinov
Doctor of philological sciences, academician

Reviewers:
Ashref Adali
Doctor of technical sciences, professor
Saodat Mukhamedova
Doctor of philological sciences, professor

ISBN 978-9910-06-252-0

© Abjalova M.A., 2024.
© “Bookmany print” publishing company, 2024.

KIRISH

Ta’lim olayotgan **o‘quvchi hamda talaba-yoshlarning** og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar, ta’lim maskanlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarga lisoniy qatlami boy o‘zbek tilining XV asrdagi leksik qirralarini ochib berish va Alisher Navoiy ijodiy merosini jahon miqyosida targ‘ib etish, Milliy merosimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish, buning uchun ham ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o‘rtasida targ‘ib etish, mumtoz adabiyot namunalarini o‘qishli va tushunarli tarzda tadqim etuvchi filologik korpuslarni yaratishga omil bo‘lishi maqsadida Alisher Navoiy mualliflik korpusining zamonaviy ko‘rinishdagi, ko‘p tarkibli va filtrli qidiruv tizimiga ega varianti yaratildi (http://alishernavoicorpus.uz/uz). Mazkur korpusning prototipi 2022-yilning 22-aprelida foydalanishga topshirilgan bo‘lib, hozirda yangi tip tarkibida o‘z havolasiga ega (http://v1.alishernavoicorpus.uz/).

1. Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi elektron manzili havolasi:
   http://alishernavoicorpus.uz/uz
2. Korpusning prototipi (ilk versiyasi) havolasi:
   http://v1.alishernavoicorpus.uz/

Alisher Navoiy mualliflik korpusi birinchi marta **o‘rta maxsus va oliy ta’lim talabalari, umuman, keng omma uchun** yangi formatdagi tizim hisoblanadi. Undan foydalanishda qulaylik uchun qidiruv menejeri (filtrli qidiruv), to‘rt tilli interfeys shakllantirililgan, bu, o‘z navbatida, foydalanuvchilarning Navoiy ijodi, umuman, XV asr manbalari bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘sha davr so‘zligini tushunish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Anglashilganidek, Alisher Navoiy mualliflik korpusi **keng omma uchun** mo‘ljallab yaratildi.

Mazkur korpusni yaratish uchun Navoiy ijodiy merosidagi leksik birliklar semantik tavsiflandi va teglandi. Natijada Alisher Navoiyning 4 devondan iborat “Xazoyin ul-ma’oniy” kulliyoti g‘azallaridagi leksik birliklarning kontekstual semantik tavsiflari bazasi yaratildi.

“Xazoyin ul-ma’oniy” kulliyoti “G‘aroyib us-sig‘ar” (“Yoshlik g‘aroyibotlari”), “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirlik (she’r)lari”), “Badoye’ ul-vasat” (“O‘rta yosh badialari”) va “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) nomli devonlardan tarkib topgan mukammal

yig‘ma devon. Xalq orasida “Chor devon” deb ham yuritiladi va har bir devonda 650 tadan – jami 4 devonda 2600 ta g‘azal mavjud.

Jahon va o‘zbek filologiyasida Alisher Navoiy ijodi, uning shaxsi, asarlarining tarjimasi borasida talaygina tadqiqot ishlari qilingan. Hozirgi kunga qadar Alisher Navoiy tarjimayi holi va uning asarlari matni jamlangan saytlar, turli mobil ilovalar va Navoiy asarlarining pdf formatdagi ko‘rinishlari mavjud. Ammo bularning o‘zi Alisher Navoiy ijodini o‘rganish, uning so‘zligini tushunish, Navoiyni anglashga hozirgi davr o‘quvchisi uchun yetarli emas. Navoiy korpusida mazkur bo‘shliqni to‘ldirish uchun bugungi kunda o‘quvchi tushunishga qiynalgan izohtalab so‘zlar izohini hech bir lug‘atsiz joriy vaqtda, tezkor bilish va shunday so‘zning misradagi ma’nosini anglashi uchun semantik tavsiflar bazasi yaratildi.

Alisher Navoiy mualliflik korpusi (MK) XV asr tilini o‘rganish uchun ham lingvodidaktik tizim va lingvistik tadqiqotlarni amalga oshirishda zarur elektron manbalardan sanaladi. Korpusni yaratish ishlari yetti bosqichda amalga oshirildi:

– birinchi bosqichda Navoiy kulliyoti Word formatiga o‘tkazilib, lotin yozuviga almashtirildi;

– ikkinchi bosqichda matnlar tahrir qilindi va semantik tavsiflash uchun har bir leksik birlik qayta ishlandi;

– uchinchi bosqichda kontekstual izohga ega bo‘lishi uchun izohtalab leksik birliklar g‘azal misralari bilan bog‘lab chiqildi;

– to‘rtinchi bosqichda navoiyshunos olimlar tomonidan leksik birliklar semantik tavsiflandi;

– beshinchi bosqichda semantik tavsiflar jamlanib, ularning ma’lumotlari bazasi yaratildi;

– oltinchi bosqichda qayta ishlangan ma’lumotlar asosida korpus ishining algoritmi tuzilib, korpus yaratildi.


Ushbu korpus va uning mobil ilovasi Navoiy ijodi ta’limining informatsion vositalari sifatida xizmat qiladi, uning yordamida o‘zbek tili vakili yoki xorijliklar uchun Alisher Navoiy ijodi hamda tilini o‘rganishning zamonaviy imkoniyatlari yuzaga keldi, shuningdek, korpus hozirgi o‘zbek tili va eski o‘zbek (chig‘atoy) tilini qiyosiy aspektda tadqiq etish imkoniyatini ham beradi.

Alisher Navoiy mualliflik korpusi elektron kutubxonadan farqli ravishda quyidagi afzalliklarga ega:

- izohtalab leksik birliklarning kontekstual semantik tavsifini interaktiv tarzda (sichqoncha leksik birlik ustiga olib borish natijasida) taqdim etish;
- ijodkor uslubi va uning so‘z qo‘llash mahoratini o‘rganish;
- adib ijodini lingvopoetik tahlil qilish;
- ijodkor qo‘llagan turg‘un birikmalarni (iboralarni) tahlil qilish;
- asar badiiyligini oshirishda keng foydalanilgan she’riy san’at turlarini tahlil etish;
- lirik turdagi janrlarda foydalanilgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini aniqlash;
- ijodkor asarini auditoriya yoshiga mos ravishda taqsimlash;
- izohtalab so‘zlarning izohini, matn mazmunini matndagi korpusdagi semantik izohga tayanib teran anglash;
- asar matni tipini aniqlay olish;
- qidirilayotgan so‘zni g‘azal raqami, matn tipi va auditoriya yoshi bo‘yicha ham filtrlar qidirish;
- g‘azallarning metama’lumoti bilan tanishish;
- raqamli texnologiyadan foydalangan holda axborot olishni tezlashtirish.

Yangi tipdagi Alisher Navoiy korpusi 8 rukndan iborat:

1-rukn: Bosh sahifa. Unda Alisher Navoiy yashagan Hirot ko‘rinishi aks etgan fon (1), Alisher Navoiy siymosi (2), bu ulug‘vor shoirning barhayotligini anglatuvchi ko‘tarilayotgan quyosh shu’lalarining 3D effekti (3), Navoiy hikmatlaridan parchalarni namoyon etib turuvchi bitik (4) – barchasi jam bo‘lib, Alisher Navoiy yashagan davr va uning ijodi haybati illyustratsiyasini berishga xizmat qilgan.



2-rukn: “Tarjimayi holi” rukni mutafakkirning hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.

3-rukn: “Devonlari” deb nomlanib, Alisher Navoiyga tegishli 9 ta devon matnlari (muxlislari tomonidan tuzilgan “Ilk devon” bilan birga). “Xazoyin ul maoniy” kulliyotidagi 2600 g‘azal va she’riy san’atlar, maqol va iboralar (turg‘un birikmalar) semantik teglangan holda foydalanuvchiga taqdim etildi.

4-rukn: “Asarlari” deb nomlangan mazkur ruknda Alisher Navoiyga tegishli 24 asarning pdf shakli (qasidalari; ilmiy, badiiy, tazkira, tarixiy, diniy mavzularda yozilgan) o‘rin olgan bo‘lib, ularni o‘qish va saqlab olish imkoniyati mavjud.


5-rukn: “Hikmatlari” deb nomlangan ruknda 9 kategoriya bo‘yicha jamlangan hikmatlar o‘rin olgan.

6-rukn: “Ilmiy tadqiqotlar” ruknida mazkur korpusga oid tadqiqot natijalari, Alisher Navoiy mualliflik korpusining ahamiyati, dolzarbligi, korpusning ilmiy, ta’limiy, ijtimoiy, ta’limiy ahamiyatini yorituvchi ilmiy maqolalar, til korpusini yaratish texnologiyasi, korpus matnlarini qayta ishlash bosqichlari xususidagi ilmiy ishlar joylashgan.

7-rukn: “Yangiliklar” ruknida loyiha doirasida amalga oshirayotgan ishlar to‘g‘risida, taqdimotlar haqida ma’lumotlar berib boriladi.


8-rukn: “Korpus haqida” ruknida til korpusi ta’rifi, mualliflik korpusining boshqa korpuslardan farqi, Alisher Navoiy MKni yaratish dolzarbligi va uning ahamiyati, korpusning semantik bazasi kabilar xususida savol-javob tarzida ma’lumotlar berilgan.

Xorijlik qiziquvchilar uchun foydalanishga qulaylik yaratish maqsadida korpus interfeysi 4 tilli (o‘zbek, ingliz, rus va turk tillari) qilindi. Shuningdek, asosiy sahifadagi bitikda berilgan hikmatlar ham interfeys tiliga asosan 4 tilda taqdim etiladi.




AL-662205561 raqamli “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish (“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallar asosida)” nomli amaliy loyiha doirasida qilingan barcha ma’lumotlar bazasi ushbu “Devonlari” ruknida namoyon bo‘ladi. Misol uchun, “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga o‘tilganda undagi jamiki ma’lumotlar bazasi “Devon tarkibi”da ko‘rinadi. Jumladan, “G‘azal” satri bosilganida (1) 650 g‘azal tartib raqami bo‘yicha, g‘azalning 1-satri bilan (bunday qulaylik ma’lum


raqam ostida qanday g‘azal o‘rin olganligini aniqlashga xizmat qiladi) yon oynada ochiladi (2). Muayyan g‘azal tanlab bosilganida uning yonida boshqa oynada tanlangan g‘azalning to‘liq matni ochiladi (3).



Semantik tavsif. Amaliy loyihaning asosiy maqsadi o‘laroq “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi jami 2600ta (har bir devonda 650tadan*4 devon=2600) g‘azaldagi izohtalab leksik birliklar (hozirgi zamon o‘quvchisi uchun tushunarsiz so‘zlar: arxaizm va istorizmlar; forsiy izofalar, izohlovchilar, mashhur shaxs va joy, tarixiy nomlar, so‘z birikmali holatidagi badiiy ifodalar, kontekstual ko‘chma ma’nolar)ning semantik tavsiflari bazasi tayyorlangan bo‘lib, buning natijasida korpusdagi g‘azallarni o‘qiyotgan foydalanuvchi tushunmagan yoki umuman bilmagan leksik birlikning ustiga sichqonchani olib borishi bilan uning **kontekstual semantik tavsifi** chiqariladi.



1-rasm. Korpusdagi “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining 1-g‘azali 2-misrasida mavjud “*zarroti*” so‘ziga “*zarralari*” kontekstual semantik tavsifining berilishi.



2-rasm. Korpusdagi “Badoye’ ul-vasat” devonining 6-g‘azali 5-misrasida mavjud “*barg*” so‘ziga “*soch taramlari*” kontekstual semantik tavsifining berilishi.

Yangi tipdagi korpus mutaxassislar uchun ma’naviy ehtiyojni qondirish manbasi, ta’lim bosqichlarida o‘quv materiali, sohalarga oid ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Alisher Navoiy mualliflik korpusi ta’limiy, tarixiy, lingvistik, ijtimoiy, tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu korpus yordamida quyidagi imkoniyatlar yuzaga keladi:


– Navoiy shaxsini o‘rganish;
– adib uslubini tadqiq etish;
– shoir ijodini lingvopoetik tahlil qilish;
– ijodkorning so‘z qo‘llash imkoniyati va mahoratini tadqiq etish;
– mualliflik lug‘atlarini yaratish;
– mualliflik iboralarini jamlash;
– MKdagi ijodkor shaxsi va uslubini namoyon etuvchi parametrlar orqali anonim asarlar muallifini topish;
– mualliflik parafraza, parema, hikmatlarini jamlash; tasviriy ifodalarning qo‘llanilish ko‘lamini ijodkor kontekstidan aniqlash mumkin bo‘ladi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrda “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmonida o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini yuksaltirish, o‘zbek tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi”da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor yo‘nalishidagi o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi yirik resursni yaratish va o‘zbek tilini Internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta’minlash vazifalarining ko‘rsatib berilishi bilan biz mutaxassislarga katta mas’uliyat bo‘ldi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonining “V. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib

chiqish” tamoyili ostida belgilangan 71-, 72-, 73-, 75-, 76-, 77-maqsadlar, shuningdek, 3-tamoyildagi 25-, 4-tamoyildagi 42-, 69-, 70-maqsadlar, 7-tamoyildagi 98-maqsadlarga to‘liq hamohang.

Kulliyotning ***“G‘aroyib us-sig‘ar”*** devonida g‘azallar jami 4975 bayt – 9950 misra (devondagi so‘z miqdori: 75 ming 350 ta, g‘azallarda 66 954 ta), ***“Navodir ush-shabob”*** devonida 4998 bayt – 9996 misra (devondagi so‘z miqdori: 71 ming 527 ta, g‘azallarda 66 596 ta), ***“Badoye’ ul-vasat”*** devonida 5001 bayt – 10002 misra (devondagi so‘z miqdori: 71 ming 580 ta, g‘azallarda 66 539 ta), ***“Favoyid ul-kibar”*** devonida 5029 bayt – 10058 misra (devondagi so‘z miqdori: 75 911 ta, g‘azallarda 66 722 ta) bo‘lib, ***“Xazoyin ul-maoniy”***dagi 2600 ta g‘azalda **20003** bayt – **40006** misra (kulliyotda jami **294368** ta so‘z(shakl), g‘azallarda **266811** ta so‘z(shakl)) mavjud. Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusida quyidagi leksik birliklarning teglanishi korpusning takomillashishiga asos bo‘ldi:




Yangi tipdagi Alisher Navoiy MKni takomillashtirishda asosan, *qoidalarga asoslangan metod* va *statistik metodga* tayanildi. Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti mantiqiy mezonlar asosida tartiblagan. Kulliyot 4 devondan iborat, har bir devonda 650 tadan g‘azal joylashtirilgan. Hozirda o‘zbek adabiyotida XV asr tilini tushunish va tadqiq etish uchun Navoiy asarlaridan ko‘p foydalaniladi, shu bois korpus uchun ijodkorning eng sara she’rlari jamlangan ushbu

kulliyotdagi g‘azallar semantik teglandi va tarixiy so‘zlar qo‘l mehnati bilan hozirgi o‘zbek tilida kontekstual semantik tavsiflandi.

Qoidalarga asoslangan metod (Rule-based method)

Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod qilgan. O‘rta asrlardagi o‘zbek tili bilan hozirgi o‘zbek tili katta farqlanishga ega. Unda bugungi kun o‘quvchisi uchun ko‘plab iste’moldan chiqqan yoki shakliy ifodasi boshqa holatga o‘tgan leksik birliklar mavjud. Ularni biz **izohtalab so‘zlar** deymiz. Bunday so‘zlar izohini foydalanuvchiga aniqlashtirib bermasdan, uning semantik guruhi yoki semantik maydonini ko‘rsatish mantiqsizlik hisoblanadi. Hozirda Navoiy davri tilining 60%i bugungi kun o‘quvchisiga tushunarsiz, ya’ni o‘sha davrdagi ko‘plab so‘zlar arxaiklashgan, iste’moldan chiqib ketgan. Natijada Alisher Navoiy asarlarini to‘g‘rida-to‘g‘ri o‘qib tushunish uchun maxsus lug‘atlar talab qilinadi. Korpusdagi Navoiy g‘azallarini o‘qish jarayonida tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarning semantik izohi interaktiv tarzda taqdim etilishi uchun korpus materiallaridagi tarixiy va eskirgan so‘zlar 18 ta lug‘at yordamida kontekstda anglatgan ma’nosi bo‘yicha navoiyshunos mutaxassislar tomonidan qo‘l mehnatida aniqlab bazaga kiritildi. Masalan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallarda izohtalab “ganj” so‘zi 65 o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, turli semantik ma’nolarni ifodalab kelgan. E.Fozilov tahriri ostida nashr etilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da *“ganj”* so‘zining 6 xil ma’nosi baytlar misolida izohlangan. Aksariyat g‘azallarga *ganj so‘zi* xazina, boylik ma’nolarini ifodalagan, g‘azallarda, shuningdek, boshqa ma’nolarda ham qo‘llangan (1-rasm):



1-rasm. *Ganj* so‘zining semantik ma’nolari.

Korpusdan foydalanuvchi kursorni izohtalab so‘z hisoblangan *ganj* so‘zining ustida harakatlantirsa, misrada qaysi leksik ma’noni anglatib kelishi ma’lum bo‘ladi. Bu innovatsion yondashuv orqali foydalanuvchi shu ondayoq izohtalab so‘z(shakl)ning aniq ifoda ma’nosini anglab oladi. *Ganj l*eksemasi ko‘p ma’noli bo‘lib, semantik teglashda ham misralarda uchragan barcha ma’nolarini hisobga olish zarur. Yana bir misol, 3-jadvalda *subh* so‘zi asosida berildi.

3-jadval. *Subh* leksimasining g‘azallarda ifodalab kelgan ma’nosi

G‘azal raqami	**So‘z (shakl)**	**Asosi – izohi / ma’nodoshi**	**Misra**
1	subhig‘a	subh – go‘zallik	Ey navbahori orazing subhig‘a jonparvar havo
16	subh	subh – tong	G‘am tuni subh tilarsen, ko‘ngul uz, zaxming ko‘p
39	subh	subh – tong	Subh chun esti sabo, ichkil qadahkim, bo‘lmog‘ung
76	subhi	subh – tong	Jamoling subhi ochib erdi yuz gul
101	subhg‘a	subh – tong	Ne subhg‘a bu sabohat, ne mehr muncha sabih
148	subhin	subh – tong	Vasl subhin to abad ko‘z tutmasun ushshoq aro
161	subhdin	subh – tong	Qamarg‘a subhdin ravnaq, quyoshqa shomdin zevar
170	subhidek	subh – tong	Shomi hijron subhidek bag‘rimni chok etti sipehr
334	subh	subh – yuz yorug‘ligi	Garchi ruxsori erur subhi dilafro‘z, valek
448	subhning	subh – tong	Subhning bir nafase asra damin

Bunday kontekstuallik tamoyilidagi asosiy e’tibor qoida asosida muayyan eskirgan so‘zning kontekstdagi boshqa so‘zlar bilan birgalikdagi ma’nosini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu metod keyinchalik korpus materiallarini N-gram metodi yordamida avtomatik semantik tavsiflashga xizmat qiladi.

Statistik tahlil metodi

Navoiy g‘azallaridagi hozirgi o‘zbek tiliga oid so‘zlar 40%ni tashkil etishi statistik jihatdan aniqlandi va ularning kontekstual semantikasi

o‘rganildi. Tadqiqot natijasida bunday so‘zlarning (masalan, *kitob, olam, dunyo, yer; yosh, quyosh, ko‘z; men, sen, u, biz, siz, ular; sari, uzra*) 15%i maxsus semantik tavsifni talab etmasligi aniqlandi. Masalan, *quyosh* so‘zi nafaqat koinot jismi sifatida, balki *mehr, muhabbat tafti* kabi ma’nolarda qo‘llangan. Demak, bunday ma’nolar o‘z misrasida kontekstual semantik izohini talab qiladi. Qolgan 15% ko‘chma ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar esa korpusda avtomatik tarzda o‘z semantik ma’nosini ifodalash imkoniyati yaratildi.

“Xazoin ul-maoniy” kulliyotidagi 2600 g‘azalda Navoiyning ijod uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, g‘azallarda qo‘llangan so‘zlar ko‘lami, o‘ziga xos yozish uslubi *statistik tahlil* metodi yordamida aniqlandi. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun kulliyotdagi jamiki so‘zlar ikki guruhga ajratildi: 1) tarixiy, eskirgan – bugungi kunda tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar; 2) hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan so‘zlar. Ishning ko‘lami va hajmi 1-jadvalda statistik jihatdan ko‘rsatildi: jadvalda kulliyotdagi 4 ta devon, ularning har biri 650 ta g‘azalga egaligi, g‘azallardagi misralar miqdori, kulliyot bo‘yicha jami so‘zlar va 2600 ta g‘azaldagi jami so‘zshakllar miqdori.

1-jadval. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi so‘zshakllar miqdori.

“G‘aroyib us-sig‘ar”	650 g‘azal: 4975 bayt – 9950 misra	Jami 75 350 000 ta, g‘azallarda 66 954 ta so‘zshakl
“Navodir ush-shabob”	650 g‘azal: 4998 bayt – 9996 misra	Jami 71 527 000 ta, g‘azallarda 66 596 ta so‘zshakl
“Badoye’ ul-vasat”	650 g‘azal: 5001 bayt – 10002 misra	Jami 71 580 000 ta, g‘azallarda 66 539 ta so‘zshakl
“Favoyid ul-kibar”	650 g‘azal: 5029 bayt – 10058 misra	Jami 75 911 000 ta, g‘azallarda 66 722 ta so‘zshakl
Jami:	**2600 g‘azal: 20003 bayt – 40006 misra**	**Jami 294 368 000 ta, g‘azallarda 266 811 ta so‘zshakl mavjud.**

Tadqiqot natijasi

G‘azallar konseptuallik tamoyi asosida, ya’ni muayyan so‘z o‘zi bilan bir baytda kelgan boshqa so‘zlar qurshovida, baytning asosiy mazmuniga hamohang tarzda ma’lumotlar bazasida semantik tasnifga ega bo‘ldi. 1-jadvaldan ayon bo‘lganidek, tadqiqotimizda Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti devonlarida mavjud 2600 ta g‘azaldagi 266 811 ta so‘zshakl 1.2.1-metod asosida semantik qayta

ishlandi. 2-jadvalda korpus bazasida semantik tavsifga va tegga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotga xos adabiy-janriy birliklar statistikasi berildi.

2-jadval. Alisher Navoiy mualliflik korpusi bazasidagi semantik teglangan birliklar statistikasi.

Teglangan so‘zlar	**Maqol**	**Ibora**	**Talmeh**	**Tanosib**	**Tazod**	**Tashbih**	**Tasdir**	**Tasbe’**
266 811 ta	124	92	883	3000 mingdan ortiq	253	124	145	32

Tadqiqot natijasida SQL bazasida g‘azallarga quyidagi ma’lumotlar biriktirildi:

1) g‘azallarning matn tipi;
2) auditoriya yoshi;
3) g‘azalning tartib raqami;
4) misradagi tarixiy, iste’moldan chiqqan so‘z va uning hozirgi semantik izohi alohida maydonlarda berildi;
5) har bir izohtalab so‘zlar ID kodlandi (4-jadval).

Teglash jarayonida Alisher Navoiy g‘azallarida bir misrada muayyan so‘z kollokatsiya holatida kontekstual ma’noni bera olishi, aniqrog‘i, Alisher Navoiy nazarda tutgan ma’no butunligi yuzaga kelishi e’tiborga olinib, muayyan bir ma’noni beruvchi so‘z birikmalari bitta semantik guruhga kiritildi, bunday holda ular bitta belgi bilan kodlanadi. Masalan, 590-g‘azalning “Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni” misrasidagi izohtalab so‘zlar semantik teglanganida maxsus 13536 kod raqami misradagi barcha so‘zshakllariga biriktirib chiqildi. Bu, birinchidan, misrani mashinaga tanitish usuli hisoblansa, ikkinchidan, ushbu satrdagi so‘zlarga berilgan semantik tavsif aynan 13536 kodga ega 590-raqamli g‘azalga mansub semantik izoh ekanligini mashina tushunadi.

4-jadval. Misralarning kodlanishi

10691	13536	Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni.	590
10692	13537	Dahr bog‘ida nechuk vasl guli butsunkim,	590
10693	13538	Hajr o‘qidur yog‘ini, ashk suyidur juvuni.	590
10694	13539	Gar Navoiy so‘ngakiga tutashur ko‘nglidin o‘t,	590
10695	13540	Ne ajab, ishq o‘tidur ulu bu aning o‘tuni.	590
10696	13541	Ul quyosh oquyda-yu men muztaribmen har sari	591
10697	13542	Uylakim, fonusdin parvona qolg‘ay tashqari.	591

4-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan misradagi: 1) *dayr – dunyo; 2) falak – osmon; 3) eng – yuz; 4) xirqa – eski juldur kiyim; 5) yurun – yamoq* so‘zshakllari 13536 raqam bilan identifikatsiyalangan.

SQL ma’lumotlar bazasidagi yuqorida berilgan maydonlari yordamida Alisher Navoiy mualliflik korpusi [http://alishernavoicorpus.uz/uz]da qidiruv filtri yuzaga keldi. Qidiruv tizimida kalit so‘z(shakl)ning qo‘llanish o‘rni va chastotasi ko‘rsatiladi.

Mualliflik korpusining tarixiy ahamiyati. Alisher Navoiy g‘azallarida tarixiy, adabiy, mifik shaxslar, geografik va etnik joy nomlari ishtirok etgan baytlar juda ko‘p uchraydi, bu badiiy nuqtayi nazardan talmeh san’atini yuzaga keltiradi. Asosiy jihati esa o‘quvchi baytdagi izohtalab so‘zlarning mazmunini aniqlash jarayonida tarixiy, badiiy shaxslar va geografik, etnik joy nomlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Shoir quyidagi baytda *Hotam, Qorun, Afridun kabi* tarixiy shaxslar va afsonaviy qahramon – *Jamshid* obrazlari orqali o‘quvchiga tarbiyaviy ahamiyatga ega fikrlar bilan birga tarixiy ma’lumotlarni taqdim etmoqda:


Qani Hotam, qani Qorun, qani Jamshid-u Afridun?
Bas ehson qil sanga gardundin adno e’tibor o‘lg‘ach[1].

Hotam – saxiyligi va oliyjanobligi bilan Sharq mamalakatlarida dong taratgan shaxs. Yamandagi toy qabilasidan bo‘lganligi uchun Hotami Toy nomi bilan shuhrat qozongan. *Qorun* – Muso paygambar *(*a) zamonida yashagan xasis boyning nomi. Sehr-jodu tufayli juda ko‘p boylikka ega bo‘lib, Muso (a)ga qarshi fitna uyushtiradi[2]. Muso (a) duosi tufayli yer qa’riga kirib ketadi. Rivoyatlarga ko‘ra, bugun topilayotgan oltin konlari aslida Qorun xazinasi bo‘lgan ekan[3]. *Jamshid* – qadimgi Eronning afsonaviy podshohi. U “Jomi jahonnamo” – jahonni ko‘rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo‘lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o‘tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo‘ladigan voqaelarni ham aks etar ekan. *Afridun (Faridun)* – qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub oltinchi hukmdor. U adolat timsoli hisoblanadi. Ularga mana shunday ulug‘ marhamatlar: toj-u taxt, behisob mol-u davlat in’om etilgan edi, lekin ular ham bu foniy dunyoda mangu qolmadilar, olamdan o‘tdilar. Bayt mazmuniga shunday xulosa qilish mumkinki, Olloh insonni mukofotlab mol-u davlat bilan siylasa, muhtojlarga ehson qilib, hamisha

[2] Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 23.
[3] Навоий А. Бадоеъ ул- васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – B. 721.

yaxshilik sari intilish, ezgu amallar qilish uning nomini manguga muhrlaydi.

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda “kavsar” so‘zi yigirma uch marta uchraydi, bu so‘z moddiy va ma’naviy to‘qlik ma’nolarini ifodalaydi. Quyidagi baytda esa “jannatdagi buloq nomi” semantik tavsifini bermoqda:



Alisher Navoiy mualliflik korpusiga kiritilgan talmeh she’riy san’ati orqali keltirilgan tarixiy shaxslar, aziz avliyolar va tarixiy joylar, mashhur maskan nomlarining semantik teglanishi natijasida o‘quvchilarda moziydagi mashhur shaxslar, ilohiy kitoblarda keltirilgan payg‘ambarlar, to‘qima obrazlar, muqaddas qadamjolar, asar nomlari borasidagi bilimlari shakllantiradi va rivojlantiradi.

Mualliflik korpusining lingvistik ahamiyati. Mualliflik korpusida muallif tilini to‘liq, keng, obyektiv ko‘rsatish imkoniyati bor, shuning uchun bunday korpuslar boshqa axborot bankidan afzalligi bilan ajralib turadi. Korpus turli xildagi tadqiqot uchun asos, manba, vosita vazifasini o‘tay oladi. Bunday korpuslarning afzalligi yana shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so‘z yoki jumlaning, balki butun boshli asar tilini bilish imkoniyati mavjud[4]. Ta’kidlash joizki, mualliflik korpuslari tadqiqotchilar uchun eng qulay axborot manbayi hisoblanishi bilan bugungi kunning nazariy hamda amaliy sohalarining uzviy ajralmas va muhim qismiga tayanib ulgurdi. Fanga oid tadqiqotlar hamisha dalillar asosida ish ko‘rishni, muayyan tadqiq mavzusi doirasida faktlar yig‘ishni, to‘plangan materiallarni sistemaga solishni taqozo etadi. Bunday katta hajmli ishni bajarishda mualliflik korpuslari tadqiqotchining vaqtini, mehnatini tejaydigan bebaho ish qurolidir. Aslida, mualliflik korpuslari texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo‘libgina qolmay, muayyan muallif asarlarining axborot tizimiga kiritilgan, ijodkor uslubini o‘rganishga, muallif haqidagi kutilmagan savollarga ham javob topishga yordam bera oladigan tizimdir.

Navoiy mualliflik korpusidan mutafakkir so‘z birliklarining barcha lingvistik xususiyatlari, undagi o‘zgarishlar – o‘sha davr nuqtayi nazarida tildagi yangilanish va bugungi ijtimoiy hayotda so‘zlarning iste’moldan

[4] Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 156.

chiqishi, faollashish va passivlashish holatlari hamda lingvistik hodisalari haqida tezkor, aniq va to‘liq ma‘lumotlarni oladi, osonlik bilan turli tipdagi katta hajmli akademik lug‘atlar tuzish, matnlarga avtomatik ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Mualliflik korpuslaridagi ma’lumotlarning ilmiy manbalar asosida tahrir qilinganligi korpusning ishonchliligini kafolatlaydi. Lingvistik hodisalarning butun spektrini to‘liq aks ettirishi – zaruriy ma’lumotlarni har tomonlama va obyektiv o‘rganishga imkon beradi[5]. Katta hajmdagi ma’naviy xazina joylashgan korpusdan tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy va chog‘ishtirma-tipologik tadqiqotlarida, leksikografik izlanishlarni olib borishda, Alisher Navoiy asarlari yordamida XV asr chastotali lug‘atlarini yaratishda, istorizm va arxaizmlarni jamlashda, so‘zlar etimologiyasiga oid tadqiqotlarni olib borishda, bugungi zamon o‘quvchisi tushunishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohini korpusdagi tezkor ravishda taqdim etilgan kontekstual misollar massivi yordamida tushunishga, uning semantik izohini topishda yordamchi vosita hisoblanadi. Bu esa auditoriya yoshidan qat’i nazar mumtoz adabiyotimizga qiziquvchilar, Navoiy davri tilini tushunuvchilar va uning asarlarini mutolaa qilib Navoiy ma’naviy xazinasidan bahramand bo‘luvchilar safining oshishiga xizmat qiladi. Mualliflik korpusining lingvistik asosi “so‘z – leksemadan uning mazmuniga qarab borish” hisoblanadi. Bunda tarjima tilning morfologik, sintaktik va semantik tahlili, lug‘atlar, grammatik qoidalar, matnlar korpusiga asoslanib amalga oshiriladi.

Mualliflik korpusining ta’limiy ahamiyati. MK ta’lim jarayonida muallif asarlarining ta’limiy, ijtimoiy, tarixiy, lingvodidaktik, ahamiyatini yoritib berishda, muallif asarlarida qo‘llanilgan so‘zlarning dialektal xususiyatlarini tasniflashda, Milliy tilning semantik xususiyatlarini, integral va differensial semalarni o‘rganishda muhim sanaladi.

Mualliflik korpusi materialidan ta’limiy maqsadda foydalanish o‘ta ahamiyatli masala. Darhaqiqat, til korpuslari ta’lim jarayonida eng muhim o‘quv quroli. Sababi mavzulashtirilgan matn ta’lim jarayonida o‘quv materiali tayyorlashda qulay axborot manbayi vazifasini bajaradi. Lingvodidaktikada mualliflik korpusining ahamiyati shundan iboratki, o‘qituvchi uchun korpus tengsiz xazina, undan o‘quv mashg‘uloti uchun serqirra, mazmunli o‘quv materialini tayyorlashi mumkin. XV asr til

[5] Волков С., Герд А., Гринбаум Н., Захаров П., Муратов А., Панков И. Корпус текстов как особый тип лингвистической электронной библиотеки / Словарь русского языка XIX века. Проблемы. Исследования. Перспективы. СПб.: Наука, 2003. – С. 86.

uslubini bugungi tilga qiyosan o‘quvchilarga o‘rgatish mumkin. Badiiy matnlarning statistik tahlili natijasida matnda tez-tez qo‘llaniluvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit so‘zlar, fe’llar, grammatik shakllar, jumla qurilishi, bir so‘z bilan aytganda, yozuvchining uslubi – o‘ziga xos yozish uslubini ko‘rsatuvchi vositalar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi. Turli matnlardan olingan dalillarning qiyosiy tahlili bizga o‘sha matnning mazmun-mundarijasini, matn tuzilgan davrni, dalillarni argumentlash xarakterini va hatto mualliflikni aniqlashga imkon beradi[6]. Alisher Navoiy MK semantik bazasini shakllantirishda bugungi kunda iste’moldan chiqqan, tarixiy va arxaik so‘zlar, kam qo‘llanilgan izohtalab so‘zlarga asosiy e’tibor qaratilgan. Navoiy shaxsi va XV asr davr tilini foydalanuvchiga anglatish uchun aynan shunday leksik birliklarning semantik bazasi yaratildi[7]. Izohtalab so‘zlarning mazmunini anglamasdan turib g‘azallarning chin ma’nosini tushunish oddiy kitobxon uchun mushkul. Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidan joy olgan 650 g‘azaldagi izohtalab so‘zlarning izohli lug‘atlar asosidagi semantik teglar bazasi asosida yaratilgan Alisher Navoiy MK tez va qulay, ishonchli ma’lumotlarni beradi. Korpusda baytlar, misralar Navoiy yashagan davr mulohazalari bilan yondashilgan, izohtalab so‘zlar manbalar asosida tahlil qilingan. Navoiy g‘azallarida bugungi kunda iste’moldan chiqqan, talaffuzi va ma’nosi mutlaqo o‘zgarib ketgan so‘z va so‘z birikmalar ko‘p sonni tashkil etadi. Jumladan:

Navoiy g‘azallaridagi bugungi kunda iste’moldan chiqqan so‘zlar	**Navoiy g‘azallaridagi bugungi kunda iste’moldan chiqqan so‘zlarning zamonaviy o‘zbek tilshunosligidagi ifodasi**
joma	to‘n, kiyim
ajmal	eng go‘zal, juda chiroyli
azhar	juda ochiq, eng porloq
baso	ko‘p, ancha
dark	idrok, aql, fahmlash
deh	qishloq
zardak	sabzi

[6] Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011. – B 154.
[7] Abjalova M., G‘ulomova N., Rashidov H. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning semantik bazasi. Guvohnoma № BGU 00583. – Toshkent, 2022.

Ta’lim jarayonida adabiyot darg‘alari ijodiga bot-bot murojaat qilishning asosiy sababi ijodkor iste’dodining serqirraligi, teran mulohazaga yetaklovchi yuksak saviyadagi asarlarining mavjudligi, shuningdek, ularga berilgan jahoniy e’tiroflar, asarlaridagi badiiy-estetik g‘oyalarning san’atkorona ifodalari bilan bog‘liq. Shu bois uzluksiz ta’lim tizimida yangi davr Milliy o‘quv dasturida Alisher Navoiy hayoti va ijodini ta’lim va tarbiya berishda o‘rganish boshlang‘ich hamda yuqori sinf o‘quvchilarida milliy g‘ururni yuksaltiradi. Milliy g‘urur insonni ma’naviy jihatdan shakllantirishning bosh omili hisoblanadi. O‘quvchilarning Navoiyona aks etuvchi nodir adabiy durdonalarning falsafiy, ilohiy-irfoniy mohiyatini his qilishda, mag‘zini anglashda umumta’lim maktablari uchun yaratilayotgan o‘quv dasturlarining ahamiyati katta hisoblanadi. Zero, misralar mag‘ziga chuqur mulohazasiz yetish imkondan tashqaridir[8].

Shu o‘rinda 3-sinfdan 11-sinfgacha amaldagi dasturlarda Alisher Navoiyning ijodiga ajratilgan vaqt va mavzularga e’tibor qaratish o‘rinli. Buning uchun, avvalo, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2021-2022-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va dasturiga murojaat qilindi [9]. Unga ko‘ra Alisher Navoiyning hayoti va ijodi o‘quv reja va dastur asosida quyidagicha mavzu va soatlarda o‘rganiladi:

Sinf	O‘rganiladigan mavzu nomi	Soat
3-sinf	“Donolarning donosi” (matn)	1 soat
4-sinf	“Alisherning yoshligi” (matn)	1 soat
5-sinf	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. “Hayrat ul-abror” dostonida berilgan “Sher va Durroj” hikoyatini o‘qish. “Sher va Durroj” hikoyatini tahlil qilish. “Hayrat ul-abror” dostonidagi egrilik va to‘g‘rilik tushunchalari yuzasidan suhbat.	3 soat
6-sinf	Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi hikmatlar va hikmatli so‘zlar matni ustida ishlash. Hikmatli so‘zlarning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.	3 soat
7-sinf	Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. “Mehr va Suhayl”. (“Sab’ai sayyor” dan). “Mehr va Suhayl” she’riy san’atlar haqida. Nazorat ishi (insho) “Suhayl timsoliga tavsif”.	4 soat

[8] Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006. – B. 255.

[9] Xalq ta’limi vazirligining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2021-2022-o‘quv yiliga mo‘jallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 297-buyrug‘i. 2020-yil. 9-dekabr.

8-sinf	Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Ruboiylari tahlili. Nazariy ma’lumot: ruboiy. Tuyuqlari tahlili. Fardlarni o‘qib, tahlil qilish. Nazariy ma’lumot: fard.	4 soat,
9-sinf	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Xamsachilik tarixi. “Farhod va Shirin” dostonidan o‘qish. Doston matni ustida ishlash. Doston timsollari tahlili. Nazariy ma’lumot: komil inson. Nazorat ishi (insho)	12 soat
10-sinf	Alisher Navoiy lirikasi. Alisher Navoiy haqida uning zamondoshlari. Navoiy g‘azallar tahlili. Navoiy qit’alari tahlili. Navoiy ruboiylari tahlili. Nazorat ishi (insho) “Navoiy lirikasining badiyati” mavzusida.	5 soat
11-sinf	Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni. Saddi Iskandariy” dostonining ma’rifiy va adabiy ahamiyati. Dostonning poetik xususiyatlari. Nazorat ishi (insho) “Saddi Iskandariy” dostonida adolatli hukmdor sifatidagi qarashlarning aks etishi”.	6 soat

Ushbu mavzularni o‘quvchilarga mazmunli yetkazish, Navoiy tilini tushuntirish uchun ham korpus asosiy elektron majmua bo‘la oladi. Uzluksiz ta’lim tizimida Navoiyning hayoti va ijod namunalarini o‘quvchi yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda o‘rgatilishi samarali ta’limga erishishning yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Mualliflik korpusining ijtimoiy ahamiyati. Mualliflik korpuslari o‘quvchilarning izlanuvchanlik salohiyatini o‘stirib, kichik tadqiqotlarni ishonchli dalillar asosida bajarishiga imkoniyat beradi. Ta’kidlash joizki, mualliflik korpuslarining ijtimoiy ahamiyati – keng qamrovli hisoblanib, undan lingvistik, etnopsixolingvistik, sotsiologik tadqiqotlarda, ona tili, adabiyot, xorijiy til ta’limida, matnga avtomatik ishlov berish, tarjima dasturlarini tuzishda foydalanish mumkin. Mualliflik korpuslaridan “ish quroli – so‘z” bo‘lgan barcha soha vakillari: tilshunos, tarjimon, o‘qituvchi, dasturchi, jurnalist, muharrir kundalik faoliyati jarayonida keng foydalanishlari mumkin. Muayyan muallifga tegishli bo‘lgan parafraza, parema, hikmatli so‘zlar so‘z boyligimizni oshirib, nutqiy ko‘nikmalarning rivojlanishiga yordam beradi. Mualliflik korpuslari tilning lug‘at boyligida bo‘layotgan o‘zgarishlar (neologizm, istorizm, arxaizm hodisalari)ni kuzatishning eng qulay vositasi hamdir. Muallif qo‘llagan so‘zlarning leksik-semantik birikish imkoniyatini tahlil qilish

jarayonida qadimiy va yangi avlod lug‘atlarini, grammatikasini taqqoslash imkoniyati kengayadi. MK vositasida muallif so‘zining serqirraligi va bir vaqtning o‘zida bir necha semantik kategoriyaga mansub bo‘la olishini farqlashda amaliy yordam beradi. Mualliflik korpuslari orqali shoirning lisoniy qarashlari bilan bir qatorda, ijtimoiy sohalarga munosabatini, siyosiy masalalarga qarashlarini ham bilish imkoniyati bo‘ladi. N.Mallayev Navoiy g‘azallarining ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritib, shunday deydi: “Navoiy haroratli ishqiy g‘azallar bilan birga ijtimoiy-siyosiy mavzularda ham g‘azallar bitdi, oshiq, raqib va rind obrazlari bilan chegaralanib qolmadi, obrazlar turkumiga mutafakkir va murabbiy obrazlarini hamda shohlarni, shayx-zohid va voizlarni kiritdi”[10]. Shoir har bir g‘azalidagi ma’no va g‘oyaga mos tarzda ohangdorlik hamda joziba yarata oldi. Navoiyning g‘azaliyoti bilan birga o‘zbek lirikasiga birinchi marta ishqiy tematikadan tashqari, falsafiy-didaktik va ijtimoiy muammolar ham muhim mavqeni egallaydi[11]. Navoiyning barcha lirik merosi inson va jamiyat haqidagi qarashlar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mualliflik korpuslarining tarbiyaviy ahamiyati. Ma’naviy merosimizni asrab-avaylash, o‘quvchilarda ajdodlar ruhini ulug‘lash ko‘nikmalarini rivojlantirish, mutolaa madaniyatini oshirish, ulug‘ ijodkorlar merosi va o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy-ta’limiy mavzuda Ibrohim Haqqul shunday mulohaza yuritadi: “Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so‘zlari diliga o‘rnashgan odam, o‘zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch qudratini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o‘z-o‘zidan xalq dardi – tashvishlarini yengillatishga bel bog‘laydi. Fikrni fikrsizlikka, ilm-ma’rifatni nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish-adolat, diyonat, imon-e’tiqodning kuchiga ishonch demakdir”[12].

Umuman, Alisher Navoiy o‘ta keng qamrovli ijod mahsuliga ega bo‘lib, Alisher Navoiy mualliflik korpusi o‘quvchiga Navoiydagi komillik fazilatlarini, asarlaridagi falsafiy, ishqiy, ta’limiy, tarbiyaviy,

[10] Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 1965. – Б. 399.
[11] Husan M. Oshiq sharhi holi ifodasida badiiy san’atlarning o‘rni. // https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/husan-maqsud-oshiq-sharhi-holi-ifodasida-badiiy-sanatlarning-orni.html. 2015.
[12] Ibrohim H. Navoiyga qaytish. – Toshkent: – 2007. – B. 10.

axloqiy, ijtimoiy, lingvistik kabi ma’lumotlarni anglashga yordam beradi, foydalanuvchini mushohada yuritishga undaydi.

Loyihaning asosiy maqsadi Alisher Navoiyning “Xazoyin ul maoniy” kulliyotidagi to‘rt devon (“G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye’ ul-vasat” va “Favoyid ul-kibar”)da mavjud 2600 ta g‘azaldagi leksik birliklarning semantik tavsiflari bazasini yaratish va ushbu bazalar yordamida yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusini shakllantirish sanaladi. Loyiha davomida ushbu maqsadga erishildi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar bajarildi:

1. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul maoniy” kulliyotidagi to‘rt devonning xatoliklari kam bo‘lgan nashri o‘rganildi.
2. Aniqlangan nashr kirill yozuvidan lotin yozuviga o‘tkazilib, qayta tahrir qilindi.
3. Har bir so‘z(shakl) kontekstual izohni namoyon etishi uchun misrasi bilan bog‘lab chiqildi.
4. G‘azallardagi izohtalab so‘z aniqlandi.
5. Izohtalab leksik birlik semantik tavsiflandi.
6. Izohtalab so‘z va so‘z birikmalarning izohi (bugungi kunda iste’molda bo‘lgan leksik ma’nosi) berildi.
7. Izohtalab so‘z va so‘z birikmalari (bugungi kunda iste’molda bo‘lmagan leksik ma’nosi) izohi bilan ko‘rsatildi.
8. Izohtalab qadimiy geografik va etnik nomlar ko‘tsatkichlari, ya’ni o‘rin-joy, makon nomlari bazasi shakllantirildi.
9. Tarixiy, adabiy va mifik shaxslar nomi ko‘rsatkichlari (Payg‘ambarlar, podshohliklar, asar qahramonlari va hakazo) semantik teglandi va tavsiflandi.
10. So‘zlarning shakldosh variantlari orqali kontekstlar bilan ishlash va g‘azalning to‘liq matniga o‘tish imkoniyati yaratildi.
